

21.1
L-21

E.N. LUTFULLAYEV, Z.N. NORMURODOV,
A.T. BERDIYEV

ANORGANIK KIMYODAN AMALIY MASHG'ULOTLAR





21.2.
L-24.

**E.L. LUTFULLAYEV, Z.N. NORMURODOV,
A.T. BERDIYEV**

ANORGANIK KIMYODAN AMALIY MASHG‘ULOTLAR

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan kimyo ixtisosi bo‘yicha ta’lim oluvchi
(5440400 — «Kimyo») bakalavriat ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

24.1
L 24

Taqrizchi: *N. K. Xolmurzayev*
Muharrir: *K. D. Mustafayeva*

Ushbu o'quv qo'llanma anorganik kimyo dasturi asosida, kimyo mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oladigan talabalar uchun mo'ljallab yozilgan. Unda anorganik kimyo asoslarini to'la o'zlashtirish uchun bakalavriatlar tayyorlash davlat standarti talabiga to'liq javob beradigan ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Laboratoriyada tajribalarni bajarish bo'yicha berilgan tavsiyalar oz miqdordagi moddalar bilan ishlashga mo'ljallangan. Tajribalarni bajarishga bunday yondashish moddalarni tejab sarflashni, tajribani bajarish uchun ajratilgan ishlash xavfsizligini ta'minlaydi. Qo'llanmada preparativ anorganik sintez bo'yicha ko'pgina tajribalarga aniqlik kiritilgan.

This practical manual is written in accordance with the program chemistry for students of chemistry. It includes useful material due to State Standards for gaining Bachelors degree.

Every practical work is intended for taking little amount of reagents. It promotes safety of laboratory work and economic spending of reagents. The manual is revised to organize practical works for preparative synthesis.

Настоящее учебное пособие написано в соответствии с программой по химии для студентов, обучающихся по специальности химия. В нем отражена вся информация, необходимая для полного усвоения основ неорганической химии при подготовке бакалавров в соответствии с государственным стандартом.

В рекомендациях по выполнению лабораторных работ предусмотрено использование небольших количеств реактивов. Такой подход к выполнению опытов обеспечивает экономное расходование реактивов и меры безопасности при выполнении работ.

ISBN — 5 — 640 — 02042 — 3

L 1703000000-141
351(04)2006

2000	JIZZAX	2PI
INV No	4829/9	
KUTUBXONASI		

«O'zbekiston» NMIU, 2006

KIRISH

Anorganik kimyo fanini chuqur va muvaffaqiyatli o'rganishning eng muhim va zarur shartlaridan biri amaliy mashg'ulotlarni hozirgi zamon talablariga javob beradigan dastur asosida bajarishdir. Amaliy mashg'ulotlarni ongli va tushungan holda atali qilib bajarish uchun moddaning tuzilishi, kimyoviy bog'lanishlarning tabiati, moddalarning reaksiyaga kirishish qobiliyati, kimyoviy reaksiya tezliklari va boshqa omillar haqida yangi ta'vuvlar beruvchi nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan mukammal darslik yoki qo'llanma mavjud bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda o'zbek tilida yozilgan, shu kunning talabiga javob bera oladigan, oliy o'quv yurtlarining kimyo fani yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalari uchun anorganik kimyo kursi dasturiga muvofiq keladigan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha qo'llanmaning yo'qligi, talabalarga amaliy ishlarni zamon talabi darajasida olib borishda ancha qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu sababli, anorganik kimyo dasturi asosida yozilgan amaliy mashg'ulotlarga oid ushbu qo'llanma universitet va oliygohlarning kimyo ixtisosligi bo'yicha ta'lim oluvchi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, hozirgi kunda qo'llanilib kelinayotgan yangi o'quv dasturida tavsiya etilgan va bajarilishi shart bo'lgan amaliy ishlarni o'z ichiga olgan. Unda anorganik kimyo asoslarini to'la o'zlashtirish uchun bakalavriat tayyorlash davlat standarti talabiga to'liq javob beradigan ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada bayon etilgan amaliy mashg'ulotlarni bajarish paytida talabalar umumiy kimyoning nazariy asoslari, metallar, metallar va ularning birikmalarining olinish usullarini o'rganish bilan birga, ularning eng muhim